



## TO'QIMACHILIK KORXONALARINING IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Davlyatova Gulnora Muxammadjanovna -  
Farg'ona politexnika instituti,  
Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti*

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss3/a41](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a41)

**Annotatsiya.** Maqolada to'qimachilik ishlab chiqarish sohasida klasterlardan foydalanish afzalliklari hamda imkoniyatlari, ayniqsa, Farg'ona viloyati tumanlarini sanoatlashtirish darajasini oshirishda jahon amaliyotidan keng foydalanilayotgan klaster tizimini qo'llashga ustuvorlik berish bilan aholining turmush darajasini oshirish imkoniyatlarining vujudga kelishi masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat, sanoatlashtirish darajasi, klaster, klasterning afzalliklari, klaster bosqichlari, klasterning rivojlanishi.

## ПЕРСПЕКТИВЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

*Давлятова Гулнора Мухаммаджановна -  
Ферганский политехнический институт,  
доцент кафедры "Экономика"*

**Аннотация.** В статье освещены преимущества и возможности использования кластеров в сфере текстильного производства, в частности, вопросы создания возможностей повышения уровня жизни населения с отдачей приоритета на использование кластерной системы, широко используемой в мировой практике для повышения уровня индустриализации районов Ферганской области.

**Ключевые слова:** промышленность, темпы индустриализации, кластер, преимущества кластера, этапы кластера, развитие кластера

## PROSPECTS FOR SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT OF TEXTILE ENTERPRISES

*Davlyatova Gulnora Muhammadjanovna -  
Fergana polytechnic institute, docent of "Economics"*

**Abstract.** The article discusses the advantages and opportunities of using clusters in the textile industry, in particular, the opportunities to improve the living standards of the population by giving priority to the use of the cluster system, which is widely used in world industrialization in Fergana region.

**Keywords:** industry, level of industrialization, cluster, cluster advantages, cluster stages, cluster development.

**Kirish.** So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashtirish siyosatini shakllantirish masalasining ilmiy-nazariy asoslari iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'plab kuzatilmoqda [19]. Sanoatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini mustahkamlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarini faollashtirish asosida sanoat imkoniyatlarini kengaytirishga erishish innovatsion taraqqiyot bosqichining eng ahamiyatli masalalaridan biridir.

Shuning uchun sanoatlashtirishni davlat siyosati darajasiga olib chiqish uchun sanoatlashtirishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq qilish, uning uslubiyotini shakllantirish, sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirishning qonuniy asoslarini takomillashtirish obyektiv zarurat sifatida belgilanadi. Mazkur siyosatni amalga oshirish mexanizmlaridan biri "klaster" tizimi hisoblanadi. Ayniqsa, to'qimachilik sanoatidagi "klaster"lar paxtani ekishdan boshlab,

uni qayta ishlash, ip shakliga keltirish, mato tayyorlash, matoni bo'yash va pardozlash hamda undan tayyor kiyim-kechak tikish jarayonlarini qamrab olishdan iborat yaxlit tizim sifatida xo'jalik yuritishning yangi bir shakli sifatida namoyon bo'ldi. Fikrimizcha, bu yerda "klaster" majmuasida alohida maqsadlardan iborat (paxta ekish, paxtani qayta ishlash, ip yigirish, mato to'qish, matoni bo'yash, kiyim tikish kabi) ishlab chiqarish jarayonlarini muayyan pirovard natijaga qaratilgan maqsadlar mushtarakligidagi tizim deb qarash mumkin bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Klaster tizimini tashkil etish bilan sanoatni rivojlantirish, tarmoqlar o'rtasidagi bog'liqlikning mantiqiy izchilligi va hamkorligini ta'minlashning zarurati bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Klaster to'g'risidagi dastlabki yondashuvlar 1890-yilda Alfred Marshallning "Principles Economics" deb nomlangan asarining "Alohida hududlarda maxsus ishlab chiqarishlarni mujassamlashti-

rish” deb nomlangan bobida o‘zaro yaqin joylashgan xo‘jalik subyektlari va ularning samaradorligi to‘g‘risida xulosa shakllantirgan [11].

Garvard biznes maktabining professori Maykl Porterning ilmiy tadqiqot ishlarida iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar sanoatining rivojlanishi hamda jahondagi ilg‘or sanoat tarmoqlarining rivojlanishi e‘tirof etilgan bo‘lib, raqobatbardosh tarmoqlar klaster prinsipi asosida rivojlanishi hamda klasterlarning qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat klasterdagi kompaniyalarning, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan [10].

S.Fisher tomonidan “iqtisodiy klasterlar nafaqat o‘zaro bog‘liq va aloqador tarmoqlar va institutlar, balki faqat aloqador va bog‘liq institutlar bo‘lib, ularning aloqadorligi va bog‘liqligi asosida tarmoqlarning raqobatbardoshligi ta‘minlanadi” xulosasi berilgan [14].

M.Enrayt klasterni “ishlab chiqarish sohasidagi uzoq muddatli ittifoqlar” deb hisoblaydi [16]. M.Voynarenko klasterni o‘rganib, klasterning “5-I” konsepsiyasini shakllantirdi, ya‘ni bu: ishtirokchilar, ular o‘rtasidagi yaqin munosabatlar, hamkorlik va raqobat, bozor talabiga yo‘naltirish [7]. A.Migranyan klasterni “sanoat, milliy va jahon bozorlarida raqobatbardosh pozitsiyalarni ta‘minlash qobiliyati” deb ta‘kidlaydi [9].

A.Prazdnichnix klasterni “o‘z ishtirokchilari-ning raqobatbardoshligini oshiradigan yaxlit tuzilma” deb hisoblaydi [12].

K.G.Burnashev o‘zining “Innovatsiyalarga asoslangan klaster tuzilmalarini rivojlantirish” deb nomlangan ilmiy tadqiqot ishida innovatsiyaga moslashgan klasterlarga ta‘rif bergan va uning e‘tirofiga ko‘ra, “Innovatsiyaga moslashgan klasterlar – o‘zaro xizmatlar, mehnat resurslari, g‘oyalar va axborotlar almashinuvi to‘liq shakllantirilmagan, ammo sinergetik samara va innovatsion faollik o‘shiga erishish maqsadida integratsiyaga tayyor bo‘lgan tashkilotlar guruhi” [6].

P.A.Suxanova o‘zining ilmiy-tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirgan: “Yuqori samaradorlikka asoslangan klasterlar modellarining tahliliga ko‘ra, qanchalik klasterda turli xildagi ishtirokchi kompaniyalar va turli xildagi tashkilotlar keng jalb qilingan bo‘lsa, shunchalik klaster yuqori samaradorligi ta‘minlangan bo‘ladi, jumladan, ishlab chiqaruvchi va ta‘minotchi, ilmiy tadqiqot va oliy ta‘lim muassasalari, moliyaviy tashkilotlar va banklar, davlat muassasalari va konsalting kompaniyalar va h.k. lar. Bu, o‘z navbatida, klasterning iqtisodiyotga chuqur integratsiyalashganligini bildiradi” [13].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining klaster asosida iqtisodiyotni sanoatlashtirish darajasini oshirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida sanoatlashuv jarayoni, davlat sanoatlashtirish siyo-

sati, tarmoqlararo integratsiya, jumladan, agrosanoat integratsiyasi va klasteri, sanoat tarmoqlarini joylashtirish, urbanizatsiyalashuvni boshqarish va jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan nazariy qarashlar, g‘oyalar, yondashuvlar va ilmiy-uslubiy masalalari o‘rganilgan [20].

Lekin ularning ilmiy tadqiqot ishlarida sanoatlashtirish jarayoniga umumiy yondashuv kuzatilgan bo‘lib, ustuvor tarmoqlar kesimida sanoatlashtirishning pirovard natijasi aniqlashtirilmagan. Fikrimizcha, iqtisodiyotning ustuvor sohasi bo‘lgan to‘qimachilikda sanoatlashtirish siyosatining nazariy asosi sifatida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish pirovard maqsad qilib belgilanishi kerak.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan bo‘lib, nazariy va metodologik asosini tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-metodologik adabiyotlar tashkil etadi. Axborot bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlaridan foydalanildi.

**Asosiy qism (tahlil va natijalar).** Mamlakat hududlarining iqtisodiy o‘shishi va ularning barqarorligi yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq. Bunda yuqori qiymatga ega bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarilishiga ustuvorlik beriladi. Bu esa rivojlantirishning lokomotivi bo‘lib hisoblanadi. Pirovard natijada hududlarning sanoatlashish darajasi yaxshilanadi.

Shuning uchun iqtisodiyot rivojiga jiddiy turtki beradigan yetakchi sohalarni hududlar kesimida rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati vujudga kelmoqda.

Iqtisodiyotdagi shu kungacha amalga oshirilgan tizimli o‘zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 34 foizga yetkazildi. Biroq ayrim hududlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi viloyat ko‘rsatkichining 1 foizidan ham kam bo‘lib, bu holat hududlarda sanoatni rivojlantirish bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishni taqozo etadi. Bu boradagi dasturlarda esa har bir turdagi birlamchi xomashyo, ya‘ni yarimtayyor mahsulotlarni chuqur qayta ishlashdan tortib, uni iste‘mol uchun tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo‘lgan yakuniy bosqichga qadar butun ishlab chiqarish jarayonini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Xususan, xomashyoni jahon bozorida talab katta bo‘lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o‘tilishi sanoatni rivojlantirishdagi eng muhim masala bo‘lib, bu tizimning asosini birinchi bosqichda xomashyoni, ya‘ni paxtani dastlabki qayta ishlash va tola olish, keyingi bosqichda toladan mato tayyorlash, uchinchi – yakuniy bosqichda esa iste‘mol uchun tayyor kiyim-kechak tayyorlashni tashkil etadi. Fikrimizcha, to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarishni tash-

kil etishning butun jarayonini – xomashyoni chuqur qayta ishlashdan toki uni tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo'lgan yo'lini – davrini jahon amaliyotida keng qo'llanib kelinayotgan “klaster” tizimini tashkil etish bilan tartibga solish maqsadga muvofiqdir [5]. Klaster tizimini amalda qo'llash asosida milliy va mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligi oshiriladi va uning quyidagi ustuvor jihatlari ilgari suriladi:

- klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 2 baravargacha, ish haqining 25-30 %igacha oshirilishi imkoniyatlarining yaratilishi o'z tasdig'ini topgan;

- ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan yangi ishlanmalarni yaratish va ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazib, ishlab chiqarishga joriy etish uchun shart-sharoitlar mavjud bo'ladi;

- ishlab chiqarish, ilmiy izlanishlardagi xodimlar va mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirish va yangi tovarlarni yaratishga imtiyozli sharoitlar bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi natijasida 2030-yilda, zamonaviy texnologiyalar asosida paxta tolasini chuqur qayta ishlash bilan tashqi va ichki bozorda talab yuqori bo'lgan tayyor, ekologik toza to'qimachilik mahsulotlari hajmini 5 martaga oshirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, fikrimizcha, klasterlarning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi, ular ishtirokchilari yo'nalishlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- o'zaro erkin axborot almashinuvi yuzaga keladi, yangiliklar iste'molchi va mahsulot yetkazib beruvchilar bo'yicha tez tarqaladi;

- klaster ichidagi o'zaro aloqalar raqobatda yangi ustunlik jihatlari belgilanishiga olib keladi;

- inson kapitali, ilmiy g'oyalari rivojlanishi va ishlab chiqarishga joriy etilishiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, hozirgi kunda to'qimachilik korxonalarida aksariyat birinchi bosqichdagi jarayonlar, ya'ni paxtani dastlabki qayta ishlash va tola olish amalga oshirilmoqda, xususan, paxtani dastlabki qayta ishlash natijasida kalava ip tayyorlanib, eksport qilinmoqda. Jumladan, Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan to'qimachilik korxonalari hissasiga butun respublikada ishlab chiqariladigan kalava ipning 40 foizi [21] to'g'ri kelishini e'tiborga oladigan bo'lsak, viloyat iqtisodiyoti uchun yana qancha daromad keltirish imkoniyati bor ekanligini anglash qiyin emas. Bu imkoniyatlardan foydalanish esa bir qancha yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi turmush darajasini oshirish, mahalliy byudjetga tushumlarni ko'paytirish imkoniyatlarini keltirib chiqaradi.

Buning uchun viloyatda yuqori qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi to'qimachilik korxona-

larini barpo etish yoki mavjudlarini kengaytirish zarurati obyektiv tarzda vujudga keladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Farg'ona viloyati va tumanlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalar va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot obyekti bo'lgan Quva tumanida yil yakunlariga ko'ra sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 721,0 mlrd. so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich Farg'ona viloyatining jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishida 3,3 %ni tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 2782,1 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,4 %ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin [22].

Quva tumanida sanoatni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinmagan. Xususan, to'qimachilik sanoatini rivojlantirish imkoniyati o'rganilganda, tumanda yetishtiriladigan paxta xomashyosining 35 %i dastlabki, ya'ni paxta qayta ishlanib, ip holatiga keltiriladi va uning 90 %i sotiladi. Qolgan 10 %i xom surp ishlab chiqarish uchun yo'naltiriladi. Agar paxtani chuqur qayta ishlash yo'lga qo'yilganda edi, iste'mol uchun tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarilib, tuman iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo'shadigan daromadni olish imkoniyati yaratilar edi. Tadqiqot davomida amalga oshirilgan hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, bu 5000 mln. dollarni tashkil etib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ulushining 3500 ming so'mgacha oshishiga imkoniyat yaratadi.

Fikrimizcha, paxta xomashyosiga chuqur ishlov berish natijasida yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni tayyorlashda jahon tajribasidan o'tgan “Klaster” tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqorida qayd etilganidek, “klaster” paxtani ekishdan boshlab to tayyor kiyim darajasiga yetkazishdagi ham iqtisodiy, ham texnologik, ham tashkiliy zanjirni barpo etib, to'qimachilik sanoatida yuqori qo'shilgan qiymat yaratish jarayonini o'z ichiga oladi. Shunday ekan, hisob-kitoblarga ko'ra, bir kilogramm paxta tolasining jahon bozoridagi o'rtacha sotish narxi 4,5-5 dollarni tashkil etsa, undan tayyor kiyim tikib sotishdan 10 dollar daromad ko'riladi. Shunday qilib, 1 tonna paxta xomashyosidan olingan paxta tolasini eksport qilish hajmi yakuniy tayyor mahsulotning eksport qiymatidan past, ya'ni kiyim-kechak mahsulotlari eksporti paxta tolasining eksport qiymatidan o'rtacha 6 marta ortiq (1-jadval).

To'qimachilik sanoati korxonasida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotni yaratish zanjiri

T/r	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Ishlab chiqarish hajmi	O'rtacha narxi, bir birlik mahsulot uchun so'm hisobida	Mahsulot qiymati, ming so'm	Paxta-tola narxining oshish darajasi, martada
1.	Paxta xomashyosi	tonna	2640	x	x	X
2.	Kalava ip	kg	2200 000	48 500	106 700 000	1,60
3.	Tarkibining 85 %i paxta tolasidan iborat bo'lgan bo'yalgan tayyor mato	kg	2 596 000	50 100	130 059 600	x
3.1.	1 donasiga o'rtacha 2 metr mato sarf etilgan ayollar ko'ylagi	dona	5 841 000	100 000	584 100 000	26,9
3.2.	1 donasiga o'rtacha 1 metr mato sarf etilgan erkaklar futbolkalari	dona	11 682 000	45 000	525 690 000	6,4

Jadval ma'lumotlari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, Quva tumanida to'qimachilik va tikuvchilik sanoatini rivojlantirish uchun hali foydalanilmagan ulkan salohiyatlar mavjud.

Tayyor kiyim ishlab chiqaradigan fabrikani barpo qilish uchun Quva tumanidagi ishlab chiqarish quvvatlari to'liq ishga solinmagan. "Quva qandolatlari" MChJning barcha infratuzilmaga ega bo'lgan, jami 5,8 gektarda maydonda joylashgan bino va inshootlaridan foydalanishni tavsiya qildik. To'quvtrikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonani ishga tushirish natijasida 500 dan ziyod xotin-qizlarning, shundan 400 nafar yoshlarning bandligini ta'minlash mumkin. Yaratilayotgan yarimtayyor mahsulotlarni aynan shu yerning o'zida klaster tizimi orqali tayyor mahsulot holiga keltirgan holda, uni jahon bozoriga olib chiqish nafaqat viloyat, balki mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada mustahkamlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Fikrimizcha, klaster tizimi asosida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tezlashtirish uchun manfaatdor guruhlarining maqsad sari birlashishini taqozo etadi. Xususan, klaster siyosatini amalga oshirishga shart-sharoit yarata-yotgan hukumat, biznes va fanning o'zaro birlashishi yangi mahsulotlar va texnologik qarorlarni ishlab chiqish hamda bozorga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarning samarali yechimini belgilaydi. Bunda, birinchidan, mamlakatlar, hududlar miqyosida xalqaro klaster tizimining tashkil etilishi fan

va texnika yutuqlaridan muvaffaqiyatli foydalanish, yangi ishlab chiqarish sohalari barpo bo'lishi, yangi bozorlarga kirib borish va bular orqali mamlakat milliy daromadi ko'payishi hamda hudud iqtisodiyotini rivojlantirishga erishiladi.

Ikkinchidan, respublikada klaster tizimi rivojlantirish va uning xalqaro klaster tizimiga integratsiyalashuvini amalga oshirish mamlakatda mavjud bo'lgan resurslardan oqilona foydalanish, yarimtayyor mahsulotlar eksportini kamaytirgan holda, ularni qayta ishlash orqali tayyor mahsulot holida eksportga chiqarish jarayonini faollashtiradi[6]. Buning natijasida:

- ta'lim tizimida innovatsion ishlanmalar hajmi yanada ortadi;
- innovatsion g'oya va takliflarni qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtiriladi;
- xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda to'qimachilik sohasini sanoatlashtirish darajasi oshiriladi;
- klaster bo'yicha xorij tajribasini o'rganish va uni amaliyotga joriy etishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqishni faollashtirishga erishiladi;
- paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash jarayoni uchun klasterlarni tashkil etish bilan respublika iqtisodiyoti xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatdan sanoatlashgan mamlakatga aylantiriladi;
- hududlarda mehnat taqsimotini chuqurlashishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi.

**Manba va adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi PF-4947-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-dekabrda "2017-2019-yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ-2687-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5989-sonli farmoni.
4. Абашкин В.Л., Бояров А.Д., Куценко Е.С. Кластерная политика в России: от теории к практике. // Форсайт. 2012. Т. 6. № 3. С. 16-27.
5. Abdullaeva S.K. (2020). Issues of ensuring economic stability in the textile industries. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(12), 67.

6. Бурнашев К.Г. Развитие инновационно-ориентированных кластерных структур. / Дис. канд. экон. наук. – М., 2014. С. 43.
7. Войнаренко М.П. Кластеры в институциональной экономике. Монография. – СПб.: АНО ИПЭВ, 2013. – 494 с.
8. Гафурова Ф.С. и Давлятова Г.М. (2019) Выявление и мобилизация резервов рационального использования ресурсов как фактор повышения эффективности производства. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (145)), 52-55.
9. Мигранян А.А. Конкуренентоспособность и структурная перестройка экономической системы государства в условиях трансформации экономики Электронный ресурс. Режим доступа: <http://www.bali.osu.ru/umc/arhiv/2005/1/Migranyu.pdf>. свободный.
10. Porter M.E. On Competition. Boston: Harvard Business School Press, 1998.
11. Powerful dusters: Main Drivers of Europe's Competitiveness. Brussels, 17i1 October 2008.
12. Праздничных А. Особые экономические зоны – это не кластеры. / А.Праздничных. // Коммерсант. 2006. № 51. С. 50.
13. Суханова П.А. Индикативная оценка региональной инновационной системы с учетом кластерного подхода. Дисс... канд. экон. наук. Пермь. 2015.
14. Фишер С. Экономика. – М.: Издательство: Дело ЛТД, 1995. – 498 с.
15. Simmie J., Sennett J. Innovation in the London metropolitan region. // <http://discovery.ucl.ac.uk/112605>
16. Enright M.J. Survey on the Characterization of Regional Clusters: Initial Results. Working Paper, Institute of Economic Policy and Business Strategy: Competitiveness Program, University of Hong Kong, Sun Hung Kai, 2000. – 21 p.
17. <https://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
18. <https://www.stat.uz> – Statistika qo'mitasi sayti.
19. Abdullayev R.V., Botirova N.Sh. O'zbekiston Respublikasida sanoatlashtirish jarayoni va uning istiqbollari. // Iqtisod va moliya. 2016-yil, 9-son, 26-35-betlar; Xolmatov N.B., Imomova N.A. O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning ilmiy-nazariy jihatlari. // Iqtisod va moliya. 2010-yil, 1-son, 21-24-betlar.
20. Ахмедов Т.М. и др. Концептуальные основы формирования экспорта-ориентированной стратегии экономики Республики Узбекистан в период до 2010 года. // Экономический вестник Узбекистана. № 1, 2000, стр. 8-15.
4. Гафуров Ш. и др. Промышленная политика: теория, опыт и применение в Узбекистане. // Экономическое обозрение. Август, 2000, стр. 5-7.
21. To'qimachilik sanoati uyushmasi ma'lumoti.
22. Quva tumanining statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



## SANOAT IQTISODIYOTIDA ILMIIY-INNOVACIION KLASTERLAR DAN FOYDALANISHNING HORIJ TAJIRIBASI

 [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss3/a42](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a42)

**Комолов Садриддин Хайриддинович -**  
Тошкент давлат техника университети  
таянч докторанти

**Аннотация.** Ушбу мақолада sanoat iqtisodiyoti rivojlangan turli mamlatlarda davlat darajasida amalga oshirilgan klaster siyosatining horij tajribasi baён etilgan hamda innovacii klasterlarining nazariy ёндашувлари таҳлил қилинган, klasterlarining rivojlanishi bosqichlari aniqlangan, Ўзбекистон sanoat iqtisodiyotida ilmiy-innovacii klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish dolzarbligini asoslab berilgan.

**Ключевые слова:** sanoat iqtisodiyoti, klaster, klaster ёндашуви, innovacii, тармоқ, корхона, фармацевтика, рақобатбардошлик, мамлакатлар.

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫХ КЛАСТЕРОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Комолов Садриддин Хайриддинович -**  
Базовый докторант Ташкентского  
Государственного Технического Университета

**Аннотация.** В данной статье описывается зарубежный опыт реализации кластерной политики на государственном уровне в различных странах с развитой индустриальной экономикой, анализируются теоретические подходы инновационных кластеров, выявляются этапы развития кластеров, обосновывается актуальность формирования и развития научно-инновационных кластеров в Узбекистане.

**Ключевые слова:** индустриальная экономика, кластер, кластерный подход, инновации, сеть, предприятие, фармацевтика, конкурентоспособность, страны.